



QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI MAMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASININ'
B U Y R I G'I

08-Sentyabr 2023-jil.

№ 154

Nókis qalasi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limiga qarashli 17-sonli maktabgacha ta'lim
muassasasini tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori hamda Qorao'zak tumani hokimligining 2023-yil 19-iyundagi 114-13-183-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori, Qoraqalpog'iston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining 2023-yil 31-avgusttagi 09/3-(23)-sonli qarori hamda Qorao'zak tumani hokimligining 2023-yil 19-iyundagi 114-13-183-Q/23-sonli qaroriga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qorao'zak tumani, "Quralpa" OFYda joylashgan 60 ta o'ringa mo'ljallangan yangidan qurilgan bolalar bog'chasiga yuridik maqomiga ega davlat muassasasi shaklidagi Qorao'zak tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 17-sonli maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Qorao'zak tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 17-sonli maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etishga va belgilangan tartibda davlat ro'yxatdan o'tkazilishiga rozilik berilsin.

3.Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxasis v.v.b (Urazbayeva) mazkur buyruqning nusxalarini Qorao'zak tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga, Nukus shahar Davlat xizmatlari markaziga yetkazilishini ta'minlasin.

4.Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i



M.Radjapov